



## IQTISODIY XAVFSIZLIK: MAMLAKAT HUDUDLARINING IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

**Omon SULTONOV<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>ISFT Xalqaro ishlar va strategik masalalar bo'yicha rektor maslahatchisi

### KALIT SO'ZLAR

Iqtisodiy xavfsizlik, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, milliy iqtisodiyot, investitsiyalar, ichki va tashqi tahdidlar, O'zbekiston iqtisodiyoti, milliy xavfsizlik, iqtisodiy choralalar, tashqi qarz, oltin-valyuta zaxiralari, korruptsiya, diversifikatsiya, moliyaviy tizim.

### КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Экономическая безопасность, социально-экономическое развитие, национальная экономика, инвестиции, внутренние и внешние угрозы, экономика Узбекистана, национальная безопасность, экономические меры, внешний долг, золото-валютные резервы, коррупция, диверсификация, финансовая система.

### KEY WORDS

Economic security, socio-economic development, national economy, investments, internal and external threats, economy of Uzbekistan, national security, economic measures, foreign debt, gold and foreign exchange reserves, corruption, diversification, financial system.

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning ahamiyati va mamlakat hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi roli tahlil qilingan. Maqolada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun milliy iqtisodiyotni bir tizimga keltirish va modernizatsiya qilish zarurligini keltrilib, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi kurashish yo'llarini ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda iqtisodiy xavfsizlikning uchta asosiy darajasi ajratilib, ularning har biri uchun muhim mexanizmlar va chora tadbirlar tavsiflanadi. Shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim omillar va ularning mazmuni haqida batafsil ma'lumot beriladi.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется значение обеспечения экономической безопасности в Республике Узбекистан и ее роль в социально-экономическом развитии территорий страны. В статье рассматривается необходимость приведения в единую систему и модернизации народного хозяйства для обеспечения экономической безопасности, а также пути борьбы с различными внутренними и внешними угрозами. В исследовании выделены три основных уровня экономической безопасности, для каждого из которых описаны важные механизмы и меры. Также подробно описаны важные факторы в обеспечении экономической безопасности и их содержание.

### ABSTRACT

This article analyzes the importance of ensuring economic security in the Republic of Uzbekistan and its role in the socio-economic development of the country's territories. The article examines the need to bring the national economy into one system and modernize it to ensure economic security, as well as ways to counter various internal and external threats. In the study, three main levels of economic security are distinguished, for each of which important mechanisms and measures are described. It also provides detailed information on important factors and their content in ensuring economic security.

Hozirgi kunda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun milliy iqtisodiyotni tuzilmaga keltirish va modernizatsiya qilish uchun uzoq va qisqa muddatda investitsiyalarni ko'paytirish talab etiladi. Biroq turlicha tashqi va ichki tahdidlarning mavjudligi milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga ma'lum darajada to'sqinlik qiladi.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda milliy xavfsizlikni ta'minlovchi omillarning optimal qiymatlarini belgilovchi sifat va miqdor usullari, zamonaviy shakl va modellarga muhim e'tibor qaratiladi. O'zbekiston imkoniyatlari va salohiyatini hisobga olgan holda uning iqtisodiyoti o'zgaruvchan bozor sharoitlari

va usullariga moslasha oladi, mos ravishda optimallashtirish ko‘rsatkichlari ham o‘zgarishi mumkin.

Bunda iqtisodiy xavfsizlikdagi ba’zi omillarning faqat mutlaq xususiyatlari (ishlab chiqarishni rivojlantirish va diversifikatsiya, rivojlangan infratuzilma, foydali qazilmalarni qazib olish va ishlov berish darajasi oshishi, malakali ishchi kuchi mavjudligi, yuqori texnologiyalardan foydalanish, iqtisodiyotni axborotlashtirish) emas, balki ularning dinamikasi muhim ahamiyat kasb etib, u omillarning xavfli qiymatlari yoki ularga yaqinlashishdan dalolat beradi yoxud iqtisodiyotning optimal yo‘nalishda harakatlanishi imkoniyatlarini aks ettiradi.

Milliy iqtisodiyotga kiritilgan hudud va korxonalarining iqtisodiy xavfsizlik tizimini batafsil o‘rganish uchun uning uchta asosiy darajasi ajratilishi mumkin. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy xavfsizlikning ta‘minlashning birinchi darajasi milliy iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o‘shishini ta‘minlash maqsadida iqtisodiy choralarni tayyorlash va amalga oshirishda mo‘ljal hisoblanadi, bunda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari baholash uchun uni belgilovchi mexanizm va vositalar eng muhimlari tanlab olinadi.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy xavfsizlikning ikkinchi darajasi iqtisodiy pasayish sharoitida iqtisodiy tizimni vaziyatli ifodalovchi omillar hisoblanadi. Ayrim ko‘rsatkichlarning pasayishi mamlakat va hududlarning iqtisodiyotida inqirozning yanada chuqurlashishiga olib kelishi mumkin.

Ikkinchi darajadagi xatarlarni aniqlash mexanizmlari (usullari, yo‘llari, vositalari) quyidagilardan iborat: resurslarning yo‘qotilishi, milliy valyutaning devalvatsiyasi, bozor sharoitlarining yomonlashuvi (jumladan, davlatdan qarz olish bozoriga xizmat ko‘rsatish), tashqi savdoning o‘zgarishi (siyosiy omillar hisoblanuvchi sanksiyalar, iqtisodiy sanksiya sifatida amal qiladi), soliq yukining oshishi va hokazo.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashning uchinchi darajasi salbiy yo‘nalishda optimallashtirish ko‘rsatkichlaridan uzoqlashish tizimli, moliyaviy yoki boshqa inqirozdan dalolat beruvchi tahdidlarni qisqartirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuyi bilan tavsiflanadi. Uchinchi darajali mexanizmlar (ikkinchi darajali mexanizmlar bilan bir qatorda) quyidagilardan iborat: ishlab chiqarishning sezilarli darajada rivojlanib borayotganidagi ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari, subyektlarning o‘z vaqtida qarzдорlik xizmatiga ehtiyoji, moliyaviy tizimni tiklashda xavf-xatarlarning prognozli hisobi va h.k.

Iqtisodiyotni dolzarblashtiruvchi kuch va omillar, ularning mazmuni, turli mualliflar tomonidan o‘rganilgan hudud va korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish iqtisodiy tizimi imkoniyatlari yoki salohiyatini belgilovchi omillar quyida keltirilgan (1-jadvalga qarang).

**1-jadval.**

**Hudud va korxonalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash imkoniyatlari va ularning mazmunini belgilovchi omillar**

Omillar	Omillar mazmuni
Savdo sharoitlarini yaxshilash (savdo sharoitlari indeksi)	Xalqaro savdoda eksport va import narxlari nisbatini belgilaydi; u milliy iqtisodiyotda tashqaridan olib kiriluvchi va mahalliy tovarlar bo‘yicha jahon narxlari o‘zgarishi nimaga sabab bo‘ladi, shuningdek, yuzaga kelgan tovar aylanma tuzilmasida import birligiga haq to‘lash, ya‘ni foyda yoki ziyon ko‘rish summasida mahalliy resurslarni qancha (ko‘p yoki kam) sarflash zarurligini ko‘rsatadi

Ichki bozorda xorijiy raqobat miqyosi yoki iste'molda import ulushi kamayishi	O'zbekiston ishlab chiqarish borasida yetarlicha resurslarga ega mahsulot ulushi juda muhim hisoblanadi
Texnika sig'imi darajasi oshishi	Eksport va importda mashina va uskunalar, litsenziya, lizing – uzoq muddatli ijara va hokazolar
Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash darajasining kengayishi	Iqtisodiyotning mamlakat, hudud va tashkiliy tuzilmasi
Tashqi qarz kamayishi	Tashqi qarzni qoplash uchun yillik to'lovlar summasining ma'lum yilda eksportdan tushum hajmiga nisbati
Oltin-valyuta zaxiralari oshishi	Oltin-valyuta zaxiralari qiymatining biror-bir yil uchun import hajmi yoki tashqi qarz va foizlarni qoplashga to'lovlar summasiga nisbati
Ijtimoiy omillar natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy xatar darajasining kamayishi	Iqtisodiyotning hufiyonalashuvi, korrupsiya, firibgarlik darajasi kamayishi

**Manba:** ushbu jadval muallif tomonidan tuzilgan

Mamlakatda hudud va korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash borasida o'z vaqtida tegishli choralarni ko'rsatish iqtisodiy pasayish, aholi bandligi qisqarishi, milliy ishlab chiqarish samaradorligi pasayishi singari salbiy oqibatlariga sabab bo'lishi mumkin.

Hudud va korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy xavfsizlik mamlakatning umumiy iqtisodiy tizimining muhim xususiyati bo'lib, u mamlakat iqtisodiyotining mustaqilligi, barqarorligi va mustahkamligi, aholi turmush darajasini oshirish, korxonalar va hududlarning samarali hamda raqobatbardosh faoliyat yuritishi, shaxsiy qoniqishni ifodalovchi milliy manfaatlarni doimiy ravishda takomillashtirish hamda izchil amalga oshirishni ta'minlovchi o'zaro bog'liq shart-sharoit va omillarni aks ettiradi.

Ushbu holatda iqtisodiy xavfsizlik ularni boshqarishning turli: moliyaviy, tashqi iqtisodiy, oziq-ovqat, sanoat, hududiy va hokazo jihatlarini qamrab oladi. Jahon iqtisodiyotiga kiritilgan milliy iqtisodiyotning shakllanishi, mamlakat va hududlarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun korxonalarini davlat tomonidan tartibga solish tizimi doirasida ichki bozorning raqobatbardoshligini ta'minlash uchun tashqi va ichki tahdidlarga qarshi kurashga qaratilgan iqtisodiy faoliyat zarur.

"Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining iqtisodiy xavfsizligi" kategoriyasi deganda ushbu tizimning hudud va uning hududida joylashgan korxonalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi normativ-huquqiy va dasturiy hujjatlardagi tahdidlardan himoya qilish holati nazarda tutiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari. – Toshkent: Davlat statistika qo'mitasi, 2023.
2. Milliy iqtisodiyot va moliyaviy barqarorlik hisobotlari. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni, 2020-2023.

4. Investitsiyalar va iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. – Toshkent: Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi nashriyoti, 2021.
5. Iqtisodiy xavfsizlik va modernizatsiya tadqiqotlari. – Toshkent: Iqtisodiy tadqiqotlar instituti nashriyoti, 2021.
6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Davlat moliyaviy siyosati va iqtisodiy xavfsizlik. – Toshkent: Moliya vazirligi nashriyoti, 2023.